

**BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQIY FAOLIYATINI  
SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI**

***Qandimova Nasiba***

*Buxoro davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi  
va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda nutqiy komptentlikni rivojlantirish metodlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** nutq, nutqni rivojlantiruvchi o'yinlar, kommunikatsion texnologiyalar, didaktik o'yin, milliy darstur, aqliy hujum, muzyorar, innovatsiya, reklama, qayta so'zla, keys study.

Dunyo mamlakatlarida ta'lim-tarbiya tizimiga innovatsion yondashuv muhim muammo hisoblanadi. Respublikamizda ta'lim jarayoniga va o'qitish masalasiga oid bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Hech kimga sir emaski, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib yetishi hal qiluvchi o'rinni tutadi. Nutqni rivojlantirish, uni muntazam takomillashtirib borish bolaning muktab davrlaridananoq juda katta ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq faoliyatining rivoji o'zgalar nutqini oqilona idrok qilish va tushunish imkonini yaratadi, shaxslararo muomala ko'lamenti yanada kengaytiradi.<sup>1</sup> Shu sababdan, hozirgi jadal rivojlanayotgan zamonda o'quvchilarning nutqiy faolligi va ravonligini oshirishdek murakkab jarayonda innovatsion metodlar, interfaol usullar va axborot texnologiyalardan foydalanish muhim o'rinni tutadi. Jumladan turli ilovalar va dasturlar, o'yinlar, ularni darslarga tatbiq etish juda ham mahsuldar usul hisoblanadi. Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyati bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullardan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda yangi Milliy o'quv dasturidagi bir qator o'zgarishlar, ya'ni "Ona tili va O'qish savodxonligi" deb nomlangan yagona fan tashkil qilindi. Eski darsliklar til sutrukurasini o'rgatishga qaratilgan bo'lsa, yangi darslikda tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanilish o'rinni, lug'at boyligi kabilarga qaratilgan. Darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rinni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi. Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki tarzda bajariladigan alohida

<sup>1</sup> G'oziyev E. Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti. 1994yil. 92-bet

topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to‘ldiradigan, o‘zi izlanib topishga qaratilgan nostandart topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Bizning fikrimizcha, o‘quvchilarining nutqiy faoliyatini va bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda quyidagi faoliyat turlari samarali sanaladi:

1. Tanlangan o‘quv materialining milliyligi va ta’limiy ahamiyatga egaligi.
2. O‘quv materialining ravon va aniq tilda yozilganligi.
3. Tanlangan materiallarni bir nechta innovatsion usullarda taqdim etish imkoniyatining mavjudligi.
4. Har bir tanlangan mavzu va materiallar mazmuni bolada mustaqil xulosalay olish va mohiyatni to‘laligicha anglay olish qobiliyatini taqdim etishi.

Maktabda nutq o‘stirishning yana bir muhim vazifalaridan biri lug‘at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini ajratish va asoslash, o‘quvchilarining lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi. Shu o‘rinda innovatsion ta’lim usullaridan biri bo‘lgan interfaol metodlarni darslarda qo‘llash, nafaqat darsni samaradorligini oshiradi, balki bevosita lug‘at boyligining o‘sishiga ham katta yordam beradi.<sup>2</sup> Biz yuqorida ta’kidlagan lug‘at ustida ishlashda ham turli interfaol usullardan foydalanish mumkin. Quyidagi metodlar tajriba sinovidan o‘tgan bo‘lib, nutqni rivojlantirishda yaxshi samara ko‘rsatgan:

**“Hikoya”.** O‘qituvchi doskaga bir nechta so‘z yozib qo‘yadi. Masalan, Nafisa, soat, yomg‘ir, kitob kabi. O‘quvchilar mustaqil ravishda shu so‘zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.



**“O‘zaro bog‘liqlik”.** O‘quvchilarga rasmli kitobchalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o‘quvchi rasmdagi predmet haqida gapirib beradi. Masalan: “Bu olma. Olma bog‘da o‘sadi va mevalarga kiradi. Uni bolalar juda yaxshi ko‘radi”. Keyin ikkinchi bola ham o‘zidagi predmet haqida gapiradi va o‘zidagi predmet bilan birinchi o‘quvchidagi predmetni o‘zaro bog‘liqligini aytishi kerak. Masalan, “Bu quyosh. Quyosh chiqsa havo isiydi. Quyosh isitib tursa, olma va boshqa mevalar pishadi”. Keyin uchinchi o‘quvchi gapiradi va ikkinchi boladagi predmet bilan o‘zidagi predmet bilan bog‘liqligini topishi kerak. O‘yin shu tartibda davom etadi.

<sup>2</sup> R. Ishmuhammedov, M. Yuldashev. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. Toshkent 2013. 11-bet.

**“Umumiylilikni izlanish”.** O‘quvchilar aylana qurib o‘tiradilar. Olib boruvchi o‘quvchilardan biriga to‘pni otayotib, bir-biri bilan bog‘lanmagan ikkita so‘zni aytadi. Masalan, maktab va o‘quvchi, kitob va Javon, quyosh va gul... To‘pni tutib olgan o‘quvchi so‘z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to‘pni qaytaradi.

**“Safar”.** O‘quvchilarga maktabdan yoki uylaridan ma’lum bir joygacha bo‘lgan yo‘lini tasvirlash topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar bir necha kun davomida “obyekt” ni mustaqil kuzatadilar va uni og‘zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat e’tibor talab etadigan bu o‘yin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, chor-atrofga e’tiborli bo‘lish, hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, mazkur o‘yinlardan foydalanganda o‘quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug‘at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi yanada shakllanadi. Yuqorida keltirilgan ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o‘stirishga yo‘naltirilgan har bir mashg‘ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Ma’lumki, bugungi kunda dars jarayonida “Aqliy hujum”, “Muzyorar”, “Insert”, “Keys study”, “BBB” texnologiyalardan o‘quv jarayonini tashkil etishda qo‘llanilmoqda. Bundan tashqari dars jarayonining samarasi va sifatini ta’minlashga xizmat qiluvchi bir nechta innovatsion metodlarni ko‘rib o‘tamiz.

**“Reklama”.** Bu metod asosan boshlang‘ich sinf darslarida o‘z samarasini ko‘rsatadi. Mazkur metodni dars jarayonining bosqichlari: o‘tilgan mavzuni so‘rash, yangi mavzuni mustahkamlashda qo‘llash mumkin. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga mavzu mohiyatiga mos tartibda tarqatma materillarni beradi, ularda “Reklama qiling” birikmasi asosiy qoidadir. O‘quvchilar tarqatmalarda berilgan mavzuni, undagi shaxs yoki predmetga xos xatti-harakatlar, asardan parchalar, rolli ko‘rsatmalar orqali reklama qilib berishlari kerak.

**“Qayta so‘zla”** metodi o‘quvchilardan ziyraklikni va hushyorlikni talab qiladi. O‘qituvchi tomonidan biror matn, ertak, hikoya o‘qib beriladi yoki televizor orqali namoyish qilinadi yoki eshittiriladi. O‘quvchilarga uch daqiqa vaqt beriladi, o‘ylab, qayta eslashlari uchun. Keyin eslarida qolganini qayta hikoya qiladilar. Bunda o‘quvchining fikrini bo‘lish yoki “xato” deb e’tiroz bildirish mumkin emas.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, yangi avlod vakillarini dunyo standartlari asosida tarbiyalash, ularning nutqiy faoliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish bugungi zamon pedagogikasiga qo‘yilgan muhim talablardan biridir.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Dilova N. G. (2021) Pedagogik hamkorlik jarayonining mazmuni va uni tashkil etish tamoyillari. Science and education. Vol. 2, Issue 10, 547-557-betlar.
2. Babayeva D. R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent –“Barkamol fayz media”- 2018 y.
3. Rasulova Z. (2021). O‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligini vujudga keltirishning pedagogik asoslari”. Science and education. Vol.2, Issue 10, 567-576-betlar.
4. Hamrayeva E. “Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish yo‘llari. Maktabgacha ta’lim jurnali. -2021-T.3. Preschool educational journal.